



BOLALARNING NUTQIY RIVOJLANISHIDA INTERFAOL

METODLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI.

**SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF USING INTERACTIVE METHODS IN
CHILDREN'S SPEECH DEVELOPMENT.**

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ
МЕТОДОВ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ.**

Islomova Zuxra Ikromovna.

Samarqand davlat pedagogika instituti.

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha
ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti.*

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalarning nutqiy rivojlanish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Nutqiy rivojlanish tushunchasi, uning psixologik-pedagogik xususiyatlari va yoshga oid bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, interfaol metodlarning mohiyati hamda ularning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy faolligini oshirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari interfaol metodlar bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *nutqiy rivojlanish, interfaol metodlar, maktabgacha ta'lim, kommunikativ kompetensiya, pedagogik texnologiyalar.*

Abstract

This article explores the scientific and theoretical foundations of using interactive methods in children's speech development. The concept of speech



development, its psychological and pedagogical characteristics, as well as age-related stages are analyzed. The effectiveness of interactive methods in enhancing preschool children's speech activity and communicative competence is scientifically justified. The findings confirm that interactive approaches significantly improve the quality of the educational process.

Keywords: *speech development, interactive methods, preschool education, communicative competence, pedagogical technologies*

Аннотация

В статье исследуются научно-теоретические основы использования интерактивных методов в речевом развитии детей. Проанализированы понятие речевого развития, его психолого-педагогические особенности и возрастные этапы. Научно обоснована эффективность интерактивных методов в формировании речевой активности и коммуникативной компетентности дошкольников.

Ключевые слова: *речевое развитие, интерактивные методы, дошкольное образование, коммуникативная компетенция, педагогические технологии.*

Kirish.

Bugungi kunda ta'lim tizimida muhtaram yurtboshimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, maktabgacha ta'lim sohasidagi yangilanishlar bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni talab etmoqda. Ushbu jarayonda bolalarning nutqiy rivojlanishi muhim pedagogik muammo sanaladi. Maktabgacha yosh davri nutqning jadal rivojlanish bosqichlari bo'lib aynan ushbu davrda bolalarda so'z boyligi kengayadi, va shu bilan bir qatorda og'zaaki nutq faol ravishda rivojlanadi. Shuning uchun maktabgacha ta'limda pedagoglar tomonidan qo'llaniladigan ta'lim metodlari bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi muhimdir. Nutqi yetrali darajada rivojlanmagan bolalarda muloqotga kirishishda qiyinchiliklar yuzaga



keladi bu esa ularning keyingi talim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktabgacha ta'lim davri bolalar shaxsining shakllanishida asosiy bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda nutqiy rivojlanish bolaning tafakkuri, bilish faoliyati va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois nutqni rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

Nutqiy rivojlanish bolaning til vositalarini egallashi, o'z fikrini izchil va mantiqiy ifodalashi hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etishini anglatadi. Psixologik tadqiqotlarda nutq tafakkur bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida qaraladi. Nutq bolaning bilish faoliyatini faollashtiradi va uning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek nutq orqali bola atrof muhitni anglaydi, bilimlarni o'zlashtiradi va ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Interfaol metodlar mohiyatan o'zaro hamkorlikka asoslangan bo'lib ta'lim jarayonida bolalarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar ta'lim jarayonida bolalarning faol ishtirokiga asoslanadi. Rol o'yinlari, suhbat, muammoli vaziyatlar, klaster va aqliy hujum kabi metodlar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash hamda muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodlar shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan ta'lim konsepsiyalariga tayangan holda amalga oshiriladi va shu bilan bir qatorda bolalarning lug'at boyligini oshirish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, va gap tuzish malakalarini rivojlantirishga ham sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari ro'l o'yinlari orqali bolalar turli hayotiy vaziyatlarni nutqiy jihatdan modellashtiradilar bu esa ularning muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Suhbat va savol javob metodlari bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirib erkin nutqiy muhitni yaratadi. Muammoli vaziyatlar esa bolalarni mustaqil fikrlashga va shu bilan bir qatorda o'z fikrini asoslash va ravon ifoda etishga o'rgatadi.



Interfaol metodlarning yana bir e'tiborga molik jihati shundaki ular shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanadia va shuningdek har bir bolaning individual imkoniyatlari va qiziqishlari inobatga olinadi, va bu esa bolalarning nutqiy rivojlanishida ijobiy natijalar ko'rsatishiga asosiy omil bo'la oladi. Pedagogning vazifasi bolalar uchun qulay nutqiy muhit yaratishgina bo'lib qolmay balki, ularni muloqotga undash va rag'batlantirishdan iboratdir. Olimlarning tadqiqotlarida ko'rinadiki, interfaol metodlardan muntaam va maqsadli foydalanish bolalarning nutqiy jihatdan faolligini jadal rivojlantiradi, ularning so'z boyligini oshiradi hamda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantiradi. Natijada ta'lim jarayoni samaradorligi sezilarli darajada rivojlanadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, bolalarning nutqiy rivojlanishida interfaol metodlardan foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samaralidir. Ushbu metodlar bolalarda nutqiy faollikni oshirib, kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonining sifatini yaxshilaydi. va shuningdek interfaol metodlar maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom nutqiy muhitni yaratishda xizmat qiladi. va shuningdek pedagoglar tomonidan bu metodlardan to'g'ri va tizimli qo'llanilishi bolalarning nutqiy rivojlanish ko'nikmalarini sezilarli va salmoqli darajada oshiradi. va natijada bolalar keying ta'lim bosqichlariga yuksak nutqiy mahorat bilan qadam qo'yadilar. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ;

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2022.
2. Jalolov J.J. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2018.
3. Abdurahmonova S. "Maktabgacha ta'limda interfaol metodlardan foydalanish"-Toshkent: Universitet, 2021.



4. Nurmonov A. "Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar". - Toshkent: Fan, 2019.
5. Vigodskiy L S. "Tafakkur va nutq" - Moskva: Progress, 1982.
6. Ushinskiy K D "Inson-tarbiya predmeti sifatida". - Toshkent: 1995.